



## KICHIK VA O`RTA GURUH YOSHIDAGI BOLALARINI “KOINOT SIRLARI” BILAN TANISHTIRISH

**Karimova Dilbar Tashpulatovna**

*Toshkent pedagogika kolleji o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda maktabgacha ta`lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etishda rivojlantirish markazlaridan foydalanish masalasi asosiy masalalardan biriga aylandi.

«Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasidagi o`quv-tarbiyaviy faoliyat “Ilk qadam” davlat o`quv dasturida berilgan yillik mavzuviy reja asosida, oy mavzulari va hafta mavzulariga asoslanib markazlarda va kun davomidagi turli faoliyatlarda olib boriladi.

*Hafta mavzulari bo`yicha quyidagi rivojlantirish markazlari tashkil etiladi:*

1. “Til va nutq” markazi.
2. “Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika” markazi.
3. “San`at” markazi.
4. “Ilm-fan va tabiat”markazi.
5. “Syujetli-rolli o`yinlar va drammalashtirish” markazi.
6. Musiqa va ritmika markazi.

Tavsiya etilayotgan mashg`ulotlar bolalarga ilk astronomik tushunchalarni berish, ularning olam haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi va kelgusida maktab ta`limida fizik, astronomik bilimlarni oson o`zlashtirishga poydevor bo`lib xizmat qiladi.

**Tayanch iboralar:** Illyuminator-odatda suv osti kemalari va samalyotlarning sirlangan dumaloq oynasidir.

**“Koinot sirlari” mavzusini markazlarda yoritish ishlari quyidagicha olib borilishi mumkin.(tavsiya)**

**3-4 yoshdagи bolalarni** (“Ilm-fan va tabiat”markazi) **“Koinot sirlari” bilan tanishtirishda** birinchi kosmonavt Yu.A.Gagarin haqida tushuncha berish mazmuni quyidagicha bo`lishi mumkin.

**Tarbiyachi:**Bolalar qadimdan odamlar huddi qushlar kabi osmonda parvoz qilishni orzu qilishgan.Ertaklardagi uchar gilamlar haqida,Yalmog`iz kampirni supurgi ustiga minib uchganlarini eshitgansiz.Yillar o`tib insonlar osmonga qanotlar yasab uchishga harakat qilishgan, har xil ichiga xavo va gazlar to`ldirilgan sharlarda uchishgan.Koinotga parvoz qilib undagi sir-sinoatlarni bilish odamzodni har doim qiziqtirib kelgan va ularning orzusi bo`lib qolgan.

1961 yili 12 aprelda insoniyat orzusi ushaldi. Koinotga birinchi kosmonavt Yuriy Alekseevich Gagarin parvoz qildi.(Bolalarga kosmonavt Yuriy Alekseevich Gagarin portreti ko`rsatiladi)

Birinchi bor koinotga kosmik kemada insonning parvoz qilishi bu juda mashshaqatli va hatarli edi.Lekin kosmonavtning o`ziga ishonchi va koinotni bilishga, o`rganishga bo`lgan qiziqishi va intilishi barcha to`silarni bartaraf etdi. U kosmik kemada Yerga

nisbatan uzoq masofadan turib Yer sayyoramizning shar shaklida ekanligi va u uzoqdan juda kichkina bo`lib ko`rinishini kuzatdi.Bu rasmda kosmonavt Yuriy Alekseevich Gagarin skafandrda tushgan (Rangli illyustratsiyalar asosida tushuntirish).

YU. A. Gagarin birinchi koinotga parvoz qilgan qahramon kosmonavtdir.

**Tajriba:** Bolalar siz raketa qanday tezlikda uchishini ko`rishni xoxlaysizmi? Buni xozir biz oddiy rezina pufakchada ko`rishimiz mumkin. Mana hozir biz pufakchani havoga to`ldiramiz-deb pufakchani puflab havoga to`ldiradi va pufakchani teshigini mahkam ushlab turib so`ng qo`yib yuboradi. Shunda bolalar pufakchani tezlik bilan yuqoriga uchganini ko`rishadi.Pufakchani ichida havo qolmagach u yerga tushadi.

Tarbiyachi gapiradi: Raketa esa yoqilg`i yordamida uchadi. Yoqilg`i esa yanada kuchliroq va uzoqroq masofaga raketani uchirib ketadi.Shuning uchun raket aytish butun Yer kurramiz atrofini bemalol aylanib chiqishi mumkin.(Rasm ko`rsatiladi)

### **Rasm “Raketani rasmini chizamiz”**

Bolalar raketani rasmini chizishni xoxlaysizmi? Bolalar oldilariga to`q ko`k rangdagi qog`ozlar tarqatiladi.Qog`ozning o`rtasiga raket konturi oddiy qalam bilan chizib qo`yilgan bo`ladi. Raketani bolalar havo rang bo`yoqqa, uning ikkita doira shaklidagi illyuminatorlarini qizil ranga, yulduzlarni sariq randa bo`yashadi.(Yulduzlar hol qo`yish “mazok” usuli bilan bajariladi.) Raketa juda yuqoriga yulduzlar tomon uchadi. Raketani kosmonavtlar boshqaradilar.

### **Applikatsiya: Fazodagi kemalar.**

Applikatsiya ishini bajarishda har bir bola individual ravishda fazo kemasini yasaydi.Bunda ularga salfetka yoki tualet qog`ozining ichidagi kardon naychasi, qog`ozdan yasalgan konus, tualet qog`ozi, bo`yoq, mo`yqalam,yelim, arqoncha, gazeta kerak bo`ladi.

**Topshiriq:**Tarbiyachi gazetani stol ustiga qo`yadi.Har bir bolaga kardon naychalar beriladi, agar salfetkalar naychasi uzun bo`lsa uni ikkiga bo`lib beriladi. Har bir bola naychani istagan rangga bo`yasinlar. Naychaning bir tomoniga yelim surilib unga konus yopishtiriladi. Tualet qog`ozlarini qizil, sariq rannga bo`yab uni naychaning ikkinchi tomoniga yopishtiriladi.(U olovga o`hshatiladi) Har bir bola yasagan raketani arqonchaga ilib guruhning bir tomonidan ikkinchi tomoniga ilib qo`yish mumkin.

**4–5 yoshli bolalar** bolalar quyosh, oy, osmon, yer haqidagi ma'lumotlarni qiziqish bilan tinglaydilar. Katta maktabgacha yoshdagagi bolalarga tabiat hodisalarini tushuntirib berish uncha murakkab emas, lekin kichik yosh bolalarga qanday tushuntirish mumkin?

Bu ishlar rivojlantiruvchi markazlarda tashkil etilishi maqsadga muvofiqli. Buning uchun maxsus kartochkalar tayyorlanadi. Kartochkalar rangi va shakli har bir obyekt xususiyatini bildiradi.

Quyosh va oy tushunchalari bilan tanishish, sariq, oq ranglar va geometrik shakllar haqidagi bilimlar mustahkamlanadi.

Bolalarga Quyosh va oy haqida topishmoqlar aytish mumkin.

1. Nur sochar issiq

Boqolmayman ko‘zim qisiq. (Quyosh)

2. Bir parcha patir, Olamga tatir.

Dum-dumaloq barkash non, ko`k yuzida suzadi. (Oy)

### 3. Oltin kelganda kumush ketar

Kumush kelganda oltin ketar. (Quyosh, Oy)

Bolalar qarang oldingizda nima turibdi? (Sariq doira)

Sariq rangdagi doirani ko‘zdan kechiramiz. U nimaga o‘xshaydi (osmonga qaraymiz).

Keling qumda quyosh rasmini solamiz. Doira atrofida to‘g‘ri chiziqlar chizilgan, bular quyosh nurlaridir. Quyosh kulishi mumkinmi? Quyoshga bir boqib uni kayfiyatini qum ustidagi rasmningizda aks ettiring. Endi boshqa oq rangdagi doira bilan tanishamiz. U oldingi doiramizdan nimasi bilan farq qiladi?

Men sizlarga topishmoq aytaman sizlar esa diqqat bilan tinglang.

*Yoshligida o‘roqday ,O‘rtasida cho ‘rakday.*

*Tosh ustida bir anor, Xadding bo ‘lsa ushlab ol.*

*Uzatsam qo ‘lim yetmaydi Barchaga birday. (oy)*

Quyosh yoniga qumda oyni rasmini chizamiz. Ular bir-biri bilan nimasi bilan farq qiladi va nimasi bilan o‘xhash?

Guruhga qaytib kelgach, rasmlarni yana bir bor qog‘ozga chizamiz. Qog‘ozni ikkiga bo‘lib, kunduz va kechqurunni tasvirlaymiz va yana bir bor quyosh chiqqanda hamma yoq yorug‘ bo‘lishini, oy chiqqanda qorong‘u bo‘lishi tushuntiriladi.

**“Yulduzli osmon”** Bolalarni osmondagи yulduzlar va yiduzlar turkumlarini bilan tanishtirish.Bolalarning lug`atiga yulduzlar va yulduzlar turkumlari nomlarini kiritish.Bu ish uchun qalin qora qog`oz; qog`oz teshgich(dirakol); yulduzlar turkumlari rasmlari; poyafzal qutisi;fonarcha kerak bo`ladi.

**Tarbiyachi:** Bolalar siz kechasi tungi osmonni kuzatganmisiz? Siz unda nimalarni ko`rgansiz? (Oy va yulduzlarni) Mana bu rasmga qarang, unda osmonda juda ko`p yulduzlar bop, bu yulduzlar orasida porlab turuvchi yulduzlar ham bor. Qadimda odamlar porlab turuvchi yulduzlarni chiziqlar bilan birlashtirib ulardan yulduzlar turkumlarini hosil qilishgan.(Bolalarga bir necha xil yulduzlar turkumlari namunalari ko`rsatiladi,nomlari bilan tanishtiriladi va takrorlantiriladi)

Bolalar hohlaysizlarmi hozir biz sizlar bilan guruhi honamizdagi shiftda yulduzlar turkumlarini kuzatamiz. Unda ishni boshlaymiz...

### **Tarbiyachi uchun ko`rsatma:**

Poyafzal qutisini bir tomonini kesib oling. Qora kartonli qog`ozdan huddi shunday o`lchovdagi to`g`rito`rtburchak shaklini qirqib oling. Ana shu qora kartonli qog`ozga mel bilan ixtiyoriy yuiduzlar turkumini chizing. Oq mel bilan belgilangan joylarni qog`oz teshgich bilan teshib chiqing. Song yulduzlar turkumlari chizilgan qora kartonli qog`ozni poyafzal qutisini qirqib tayyorlab qo`yilgan joyiga yopishtiring. (bir nechta yulduzlar turkumlarini tayyorlab qo`yish mumkin) Xonadagi chiroqlarni o`chirib, pardalarni yoping. Boyagi poyafzal qutisi ichiga fonarchani yoqib qoying. Techikchalardan taralayotgan hurlarni shiftga qarating va bolalarni osmonda(shiftda) hosil bo`lgan yulduz turkumini kuzatishlarini aytинг. Bolalar undagi yulduzlar sonini sanasinlar, so`ng siz uning nomini so`rang (takrorlasinlar).

### **Tarbiyachi uchun ko`rsatma:** (Rasm va applikatsiya)

Bolalarni yulduzlar turkumlari tasvirlangan rasmlar bilan tanishtiring;

Bolalarga ko`k rangdagi qog`ozlarni tarqating;

Bolalarga Oy va yulduzlar shaklini qirqishni topshiring ;

Bolalarga tayyorlangan qirqimlarni ko`k rangdagi qog`ozga yopishtirishlarini taklif eting, so`ng ular yopishtirgan yulduzlar qaysi yulduzlar turkumiga o`xshashib ketishini gapirishsin va ularni qora flamaster bilan birlashtirishlarini taklif eting;

### ***Bolalar bilan “Tungi osmon” ko`rinishi jamovaiy ishni tashkil etishi mumkin.***

Bolalarga qora rangdagi vatman qog`ozini bering;(tungi osmon ko`rinishi). Bolalarga oy va yulduzlar shakkllarini qirqib, ularni bo`yoq va mo`yqalamdan foydalangan holda sariq ranga bo`yashi taklif eting. Bo`yab bo`lingan oy va yulduzlarni bolalar qora randagi vatman qog`oziga yopishtirsinlar.

Bolalar tomonidan yasalgan yulduzlar va Oy tiniq osmonda porlab turganini aytib ularni jamoa bo`lib bajargan ishlarini rag`batlantiring. Bajarilgan ishni guruh honasidagi tabiat burchagiga ilib qo`ying.

### **“Koinot sirlari” mavzusini yoritishdan oldin bolalar bilan olib boriladigan ishlar bo`yicha tavsiyalar:**

Ota-onalarga kechki sayrlarga ko`chaga chiqishganda tungi osmonni va undagi Oy, yulduzlar va ularni orasida porlab turuvchi yulduzlarni bolalari bilan kuzatishlarini topshiring;

Atrof-olam mashg`ulotlarida bolalarga tungi osmon, undagi yulduzlar, ayrim yulduzlar porlab turuvchi yulduzlar bo`lib, ular yulduzlar turkumini hosil qilishi haqida tushuncha bering;

Yulduzlar turkumlari va ularning nomlarining kelib chiqish tarixi haqida tushuncha bering;

Mavzuni yoritishda bolani dialogga chorlang;

Mashg`ulotlarni ko`rgazmalar asosida, ilg`or pedagogik texnologiya va AKT-lardan foydalanib tashkil eting;

Mashg`ulot jarayonida turli muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirib, bolalarni yanada koinot haqidagi qiziqishlarini o`stirib, uni bilishga intilishiga erishing;

Biz bolalarga dunyo haqida qanday ma`lumot bersak u buni shunday qabul qilishini unutmang!

Bolalarga “Koinot sirlari” haqidagi bilimlarni ilmiy asoslangan holda bering!

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.“Ilk va maktabgacha yoshdagisi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablari” O`RMTV Toshkent-2020

2.“Ilk qadam” Davlat o`quv dasturi O`RMTV Toshkent-2022

3. Google. com/